

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
PEDAGOGIKA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Mirzakarimova	
O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini rivojlantirishning diagnostik tahlili	5
H.K.Abbasova, Sh.A.Tojiboeva	
Роль медиа в образовании	14
G.P.Tashmatova	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	18
O.M.Erkaboyev	
Harbiylashgan (Temurbeklar maktabi misolida) va harbiylashmagan maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasini baholash	24
D.A.Tursunova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni va aksiologik asoslari	31
S.T.Xalikova	
Sport faoliyatini rivojlantirishda asosiy psixologik xususiyatlar	35
M.M.Xasanova, Q.O.Shodmanov	
Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan bolalarning klinik va psixologik-pedagogik xususiyatlari	40
F.O'.Toshiboltayev	
Ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni integratsiyalash	43
A.M.Azimov	
Kurashda texnik va taktik ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogik metodlar	46
X.X.Raximov	
Ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlari: farqlar va o'xshashliklar	50
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik hamkorlikning vazifalari	54
F.Q.Qurbonova	
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlari	58
B.B.Nurmatov	
Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati	62
I.I.Hotamova	
Integrating ai-powered pronunciation tools to enhance speaking proficiency in efl learners	65
U.Y.Axmedova, F.J.Muhammadqodirova	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida texnologik topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladigan metodlar	68
G.Sh.Rakhimova	
Implementing authentic text approach to improve reading comprehension of efl students	71
O.R.Raxmatov	
Yolg'on axborot, dezinformatsiya va manipulyatsiyaning keng tarqalishi	74
A.A.Parmonov	
Akmeologik motivatsiya va uni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	78
Ch.B.Raximova	
Talabalarni lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirish orqali ularning kognitiv qobiliyatlarini rag'batlantirish	83
D.A.Tursunova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	87
F.O'.Toshiboltayev	
Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida akt integratsiyasining samaradorlikka ta'siri	91



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARIXIY VA MA'NAVIY IDEALLARGA DOIR
BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA AKSIOLOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И АКSIОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ОБ ИСТОРИЧЕСКИХ И ДУХОВНЫХ ИДЕАЛАХ****PEDAGOGICAL CONTENT AND AXIOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING
FUTURE TEACHERS' KNOWLEDGE OF HISTORICAL AND SPIRITUAL IDEALS**

Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi 
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning metodik tizimi, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni va aksiologik asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам, методическая система формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам, эффективность формирования ценностного отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам. Анализируются педагогическое содержание и ценностные основы формирования знаний будущих учителей об исторических и духовных идеалах.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals, the methodological system of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals, the effectiveness of developing future teachers' axiological attitude to historical and spiritual ideals. The pedagogical content and axiological foundations of developing future teachers' knowledge of historical and spiritual ideals are also analyzed.

Kalit so'zlar: tarixiy va ma'naviy ideal, aksiologik munosabat, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash.

Ключевые слова: историко-духовный идеал, аксиологическое отношение, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка.

Key words: historical and spiritual ideal, axiological attitude, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida, oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitishda ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda. Bularga tarix fanini o'qitishdagi eskicha yondashuv, sobiq sovet tuzumidan saqlanib qolgan yondashuvlardan voz kecha olmaslik, zamonaviy tadqiqotlarning kamligi asosida yangicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkonining cheklanganligi, tarixiy haqiqatlarni yolg'onlari bilan ajratishga yo'naltirilgan tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikaning mavjud emasligi va boshqalarni kiritish mmkin. Shuningdek, bugungi oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning tarixiy ideallik, namunaviylik sifatleri va ishlaridan saboq chiqarish, ularga o'xshashga intilishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati ham ahamiyatli muammolardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixiy va ma'naviy idelallarga doir ilmiy izlanishlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri muammolari B.To'ychiyev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diyev, E.Safayeva, N.Remeyev, Y.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjayev, N.M.Egamberdiyeva, Q.Shonazarov, H.Boltaboyev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, Shi Yunli kabilar talaba-yoshlarning tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishdagi vazifalar, zaruriy choralar hamda mavjud muammolarning tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni nafaqat ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijtimoiy-ma'naviy ongini, tarixiy xotirasini hamda milliy g'ururini yuksaltirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlar bu jarayonning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, o'qituvchi shaxsining professional shakllanishida muhim o'rin tutadi. Tarixiy va ma'naviy ideallar, avvalo, xalqning tarixiy taraqqiyot yo'li, urf-odatlar, qadriyatlari hamda buyuk siymolari bilan bog'liq tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchisining bilim doirasida quyidagilar bo'lishi kerak:

O'zbekiston va jahon tarixidagi buyuk shaxslar, ularning g'oya va faoliyatidagi ma'naviy yetuklik;

milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ularning tarixiy shakllanish jarayoni;

O'zbek xalqining ozodlik, adolat, vatanparvarlik, tinchlikparvarlik kabi yuksak ideallar asosidagi tarixiy kurashlari;

ma'naviy ideallar asosida yosh avlodni tarbiyalash tamoyillari.

Bo'lajak o'qituvchilarda bu bilimlarni rivojlantirish quyidagi pedagogik asoslarga tayangan holda amalga oshiriladi:

tarixiylik tamoyili – tarixiy faktlar asosida g'oyaviy tushunchalarni shakllantirish;

integratsiyalashgan yondashuv – tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasi orqali bilimlar bazasini boyitish;

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir talabaning individual dunyoqarashi va qadriyatlariga mos yondashuv;

faoliyatga asoslangan yondashuv – talabalarning amaliy faoliyati orqali tarixiy-ma'naviy bilimlarni mustahkamlash (taqdimot, tadqiqot, bahs-munozaralar);

reflektiv yondashuv – o'rgatilayotgan bilimlarning shaxsiy hayot va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qilish.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda tarixiy hamda ma'naviy ideallarga doir bilimlarning pedagogik mazmuni va asoslarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim jarayonida tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda joriy etish orqali milliy ong, o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodga tarixiy haqiqat va ma'naviy barqarorlikni yetkazishda muhim kafolatdir. Yuqoridagi bobda keltirganimizdek, tarixiy va ma'naviy ideallar – bu jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, axloqiy qadriyatlari asosida shakllanadigan, insonlarni komillik sari yetaklovchi g'oyalar, orzu-intilishlar va ruhiy mezonlardir. Ular xalqning o'zligini anglash, milliy birlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va adolatparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy mezon hisoblanadi. Tarixiy ideallar, odatda, xalq hayotining tarixiy bosqichlarida shakllanib, millatning ozodlik, erkinlik, jasorat, adolat yo'lidagi intilishlarini ifoda etadi. Masalan, Amir Temur shaxsiyatidagi "Kuch – adolatda" tamoyili tarixiy ideal sifatida qaraladi. Ma'naviy ideallar esa shaxsning axloqiy-ruhiy kamoloti, ichki dunyosining yuksalishiga xizmat qiladigan fazilatlar – halollik, sabr-toqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi insoniy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Shu bois, tarixiy va ma'naviy ideallar ta'lim-tarbiya tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali talabalarda milliy ong, tarixiy xotira va axloqiy yetuklik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun tarixiy va ma'naviy ideallarning mohiyatini anglash, ularni yosh avlodga yetkazish, bu sohada chuqur bilim va pedagogik mahoratga ega

bo'lish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda ayniqsa "O'zbekiston tarixi" fanlari muhim o'rin tutadi.

"O'zbekiston tarixi" fani bo'lajak pedagoglarda tarixiy faktlarni o'rgatish bilan bir qatorda, ularni tarixiy tafakkur, vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda yetkazish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu fan quyidagi pedagogik yondashuvlar orqali tarixiy-ma'naviy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi:

didaktik tamoyillar asosida tarixiy materialni tanlash va tizimlashtirish;

tarixiy va zamonaviy voqealarni solishtirish orqali milliy ongni mustahkamlash;

talabalarda tarixiy shaxslar faoliyati orqali ideal obrazlarni yaratish;

bahs-munozaralar, esse va rol o'yinlari orqali tarixiy hodisalarga shaxsiy munosabat bildirishni rag'batlantirish. Bu fanni o'zlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchi nafaqat tarixni o'qitishni, balki uning orqasidagi ma'naviy saboqlarni anglatishni ham o'rganadi.

"O'zbekiston tarixi" fani esa o'zbek xalqining boy tarixiy merosi, ma'naviy qadriyatlari, ozodlik uchun kurashlari, buyuk allomalari va ularning faoliyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu fan orqali:

talabalar milliy g'urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira kabi tushunchalarni anglaydi;

Amir Temur, Alisher Navoiy, Islom Karimov kabi tarixiy shaxslar timsolida milliy ideal shakllanadi;

tarixiy bosqichlar orqali xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'li va sinovlari tushuntiriladi;

talabalar mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tarixiy siyosiy islohotlarni baholashga o'rganadilar.

Mazkur fanlar o'zaro integratsiyada olib borilganda, bo'lajak tarix o'qituvchilari nafaqat tarixiy ma'lumotlarni biladigan, balki ularni xalqning ma'naviy merosi bilan bog'lab yetkazadigan, talabalarda axloqiy-ideallik fazilatlarini uyg'otadigan pedagoglar sifatida shakllanadilar. Tadqiqotimizda "O'zbekiston tarixi" fani misolida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilishi bejiz tanlanmagan. Bu ikki fan mazmunan bir-birini to'ldiradi, metodik jihatdan esa o'zaro uyg'un holda tarixiy bilimlarni chuqur anglash va ularni qadriyatlar asosida talabalarga yetkazish imkonini beradi. Avvalo, "O'zbekiston tarixi" fani nafaqat fakt va voqealarni bayon etuvchi darslik predmeti, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu fan orqali talaba o'z xalqining azaliy qadriyatlari, istiqloq yo'lidagi kurashlari, tarixiy shaxslari va ularning ma'naviy-axloqiy merosi bilan tanishadi. Aynan shu ma'naviy boyliklar aksiologik yondashuvning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga milliy qadriyatlar va tarixiy haqiqatlarni singdirish, ularni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish dolzarb vazifadir. Shu bois "O'zbekiston tarixi" fani tarixiy-ma'naviy ideallarning aniq mazmuniy manbai sifatida tadqiqot uchun nihoyatda qulay asos bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, "O'zbekiston tarixi" fani bo'lajak pedagoglarni zamonaviy yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari va didaktik uslublar bilan tanishtiradi. Ushbu fan tarix fani mazmunini qanday qilib talaba ongiga samarali yetkazish, ayniqsa, tarixiy faktlardan ma'naviy va qadriyatga oid xulosalar chiqarishga o'rgatish imkonini beradi. Mazkur metodika fanining asosiy afzalligi shundaki, u nafaqat o'rgatish yo'llarini belgilab beradi, balki o'qituvchining o'zini aksiologik jihatdan tayyorlaydi. Zero, ma'naviy va tarixiy ideallarni talabaga yetkazish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi bu qadriyatlarni chuqur anglagan, his qilgan va ongli ravishda singdirgan bo'lishi lozim.

Bu ikki fanning uyg'unligi orqali tadqiqot mavzusiga amaliy yechim taklif etish mumkin bo'ladi, biri – mazmun manbai (tarixiy bilim va qadriyatlar), ikkinchisi esa – metodik vosita (o'qitish texnologiyalari, pedagogik yondashuvlar) rolini bajaradi. Bir tomondan, "O'zbekiston tarixi" asosida talabalar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan tarixiy-ma'naviy mazmunlar aniqlanadi, ikkinchi tomondan esa, "O'zbekiston tarixi" fani orqali shu mazmunlarni talabalarda qanday shakllantirish, qanday metodik yondashuvlar orqali qadriyatlarni singdirish mumkinligi ishlab chiqiladi. Shunday qilib, bu fanlarning tanlanishi tarixiy haqiqat va pedagogik metodikani o'zaro bog'lovchi mustahkam ilmiy-amaliy asosga ega bo'lib, bo'lajak tarix o'qituvchilarini nafaqat bilimli, balki aksiologik jihatdan yetuk, tarixiy va ma'naviy ideallarni ongli targ'ib qiluvchi shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, amaliy qiymati va natijaviyligini

PEDAGOGIKA

ta'minlovchi asosiy omillardandir. "O'zbekiston tarixi" fani tarix ta'limi sohasidagi fundamental pedagogik yo'nalishlardan biri bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim talablari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda markaziy o'rin egallaydi. Fan mazmunining zamonaviylik va amaliyotga yaqinligi uni "O'zbekiston tarixi" fanidagi tarixiy-ma'naviy g'oyalarni real ta'lim jarayoniga tatbiq etishdagi muhim ko'priikka aylantiradi.

XULOSA

Oliy ta'limda tarix fanini yangi mazmunini va talabalarning bilish faoliyatini yanada faollashtirish vazifalari tarix o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirish dolzarbligini belgilab beradi. Tarix fanini o'qitish mazmunan boyiydi, o'qishning mavjud shakl va metodlarini takomillashadi, yangi shakl va metodlar yuzaga keladi. Dars turlarini tavsiflashda ta'lim jarayonini qonuniyatlari, ularning asosiy bosqichlari (talabalarni tarixiy voqealarni idrok etishga tayyorlash, material bilan tanishtirish, uni tahlil qilish, umumlashtirish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish, olgan bilimlaridan amaliy faoliyatda foydalanishga o'rgatish) asos qilib olinadi. Tarixni o'rganishning har bir bosqichi materialning mazmuniga qarab muvofiq shakl tanlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'raev G', Abdullaeva M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2012. – 112 b.
2. Kelby Mason, Chandra Sripada, Stefen Stich. The philosophy of Psichologi. N.G. 2016. Лич Д. Прикладной анализ поведения. –М.: Оперант, 2015.
3. Normurodov Q. Tarixiy ong va yosh avlod tarbiyasi // O'zbekistonda pedagogika fanlari jurnali. – 2020. – №3. – B. 22–25.
4. Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.
5. Миллий истиқлол ғояси асосий тушунчалар, атамалар ва тамойиллар (қисқача изоҳли тажрибавий) луғат. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2002. – Б.12-15.
6. Соколовой И.И., А.С. Колесникова «Современная зарубежная компаративная педагогика и философия образования». -М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, 2013. – 328 с. – С. 254.